



**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BOLALAR NUTQIDA PARALINGVISTIK
VOSITALARNING QO'LLANILISHI**

Erkinova Zebo

O'JTDU Ingliz tili filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

G.I.Normurodova

Ilmiy rahbar: Umumiy tilshunoslik kafedrası dotsenti, (Ph.D)

Annotatsiya: *ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida bolalar nutqida paralingvistik vositalarning namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolalar muloqotida mimika, imo-ishora, intonatsiya, pauza, ovoz tembri kabi unsurlar til tizimi va milliy madaniyat bilan bog'liq holda o'rganilgan. Shuningdek, maqolada o'zbek oilalarida bolalar muloqotida uchraydigan noverbal belgilar hamda ingliz madaniyatidagi bolalar ifoda shakllari taqqoslanadi. Tadqiqot natijasida, har bir millatning mentalitetidan kelib chiqib, ingliz bolalarida paralingvistik ifoda ochiqlik va hissiylik bilan, o'zbek bolalarida esa bosqichlik va odob bilan namoyon bo'lishi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *paralingvistika, bolalar nutqi, intonatsiya, mimika, madaniyatlararo muloqot, madaniy tafovut, lingvamadaniyatshunoslik.*

Kirish

Til insonni jamiyat bilan bog'lab turuvchi vosita. Til inson muloqotining markaziy vositasi bo'lsa-da, uni to'liq anglash uchun so'zsiz belgilar tizimini ham o'rganish zarur. Paralingvistika so'zga hamroh bo'luvchi intonatsiya, tana harakati, mimika, ovoz tembri kabi ifodaviy vositalarni qamrab oladi. Bolalar nutqida bu vositalar tilning semantik qatlamini to'ldiradi va his-tuyg'ularni yetkazishning birlamchi mexanizmi hisoblanadi. Ingliz va o'zbek bolalari paralingvistik ifodalardan turlicha foydalanadilar, bu esa madaniyatlarning tarbiya va kommunikatsiya modellari bilan bevosita bog'liqdir. Paralingvistika – bu nutqdagi so'z mazmunidan tashqari jihatlarni o'rganadigan tilshunoslik sohasi. U nutqning intonatsiya, ovozi balandligi, tempi, pauza va ohang kabi elementlarini o'rganadi. Shuningdek, paralingvistika noverbal belgilar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nutq mazmunini yanada tushunarli qiladi va tinglovchiga gapiruvchining emotsiya va niyatini yetkazadi.

Asosiy qism

1. Paralingvistikaning bolalar nutqidagi o'rni

Bolalik davrida bola nutqi fonetik jihatdan shakllanmasdan turib, ifodaviy jihatdan boy bo'ladi. U ko'p hollarda so'z o'rnini ohang, pauza, yuz ifodasi bilan to'ldiradi.

Masalan, bola “men xafa bo'ldim” demasdan, labini burib, jim turishi orqali his-tuyg'usini bildiradi. Bu holatda semantik yukni so'z emas, paralingvistik signal tashiydi.

2. Ingliz bolalar nutqida paralingvistik vositalari



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ingliz madaniyati ochiq ifodaga tayanadi, shuning uchun bolalar paralingvistik vositalarni faol qo‘llaydilar:

- Ko‘z bilan aloqa — ishonch va diqqat belgisi,
- Tabassum — ijobiy javob yoki ijtimoiy qulaylik ko‘rsatkichi,
- Tovush balandligi — his-tuyg‘uni ifodalovchi asosiy vosita,
- Pauza — nutq ta’sirini kuchaytiruvchi element sifatida.

Misol uchun, ingliz bolasi “I didn’t do it!” so‘zini ohangni baland ko‘tarib aytadi — bunda ovoz ohangi himoya, hayrat va norozilikni bildiradi. Shu tarzda, intonatsiya ma’no yukini so‘z bilan teng darajada olib yuradi.

J. Blount (2008) bolalar nutqida intonatsiya orqali hissiyot ifodasi til o‘rganishning birinchi bosqichida shakllanishini ta’kidlaydi. C. Snow (1999) esa ingliz bolalar “yes”, “oh!”, “really?” kabi so‘zlarda intonatsion farqlar orqali emotsiona ifodalashini qayd etgan.

Harold Pinterning asarlari — ayniqsa uning teatrlari paralingvistik vositalarni ifodalashda juda kuchli misollar beradi.

Masalan, *The Caretaker*, yaqin final sahna (Davies suhbat)

Ilmiy tahlillardan birida:

“What am I going to do? Pause. What shall I do? Pause. Where am I going to go? Pause. ... Long silence.”

3.O‘zbek bolalar nutqida paralingvistik belgilarning milliy xususiyatlari

O‘zbek madaniyati “sokin ifoda”ga asoslangan bo‘lib, bola hissiyotini ko‘rsatishdan ko‘ra uni nazorat qilishni o‘rganadi. Shu sababli:

- Jim turish — ko‘p hollarda hurmat, aybni tan olish yoki ixtiyoriy rozi bo‘lish belgisi.
- Bosh egish — itoat, katta kishiga hurmat ifodasi.
- Tabassum — noqulaylikni yumshatish uchun ishlatiladi.
- Ko‘zini olib qochish — ayb yoki uyat hissini bildiradi.

Masalan, O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” asarida bola otasining gapiga javob bermay, yerga qaraydi va jim qoladi — bu paralingvistik tarzda pushaymonlik va qo‘rquv ifodasidir (52-bet).

Bu madaniyatda jimlik — nutqdan ham kuchli ifoda vositasi sifatida qabul qilinadi.

Belgilar turi	O‘zbek bolalar nutqida	Ingliz bolalar nutqida
Pauza	Mulohaza yoki uyatchanlik	Nutqi orqali ta’sirni oshirish yoki hazil uchun
Mimika	Odobli, mulohazali	Faol, hissiy
Intonatsiya	Past ohangli bo‘lsa, hurmat bo‘lmasa behurmatlik	O‘ziga ishonch, ifodali

Tahlilda ko‘rinadiki, ingliz bolalari verbal va paralingvistik birliklarni erta qo‘llashga o‘rganadilar. Natijada o‘z tushunchalarini o‘zgalarga bemalol tushuntirib bera oladilar.



O'zbek bolalari esa hissiyotga beriluvchan va buni nazorat qilishni madaniyatning bir qismi sifatida yoshligidan ongiga singdirilib kelinadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, paralingvistik vositalar bolalar nutqida nafaqat hissiy aloqa vositasi, balki ijtimoiy identifikatsiya omili hamdir. Ingliz bolalarida bu ochiqlik va ishonch orqali, o'zbek bolalarida esa odob va bosiqlik orqali ifodalanadi. Shunday qilib, til o'rganishda paralingvistik vositalarni e'tiborga olish — bolalarning madaniyatlararo muloqot qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Paralingvistika nutqning mazmunidan tashqari, ya'ni "qanday aytilgan"ini o'rganadigan tilshunoslik sohasi sifatida muhim ahamiyatga ega. U intonatsiya, ovoz balandligi, ohang, nutq tezligi va pauzalar kabi elementlarni tahlil qiladi hamda tinglovchiga gapiruvchining emotsiyasi, niyati va kayfiyatini yetkazishga yordam beradi. Shuningdek, paralingvistika noverbal vositalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nutq mazmunini yanada boyitadi. Shu sababli, paralingvistika nafaqat lingvistik tadqiqotlarda, balki pedagogik, kommunikativ va psixologik tadqiqotlarda ham keng qo'llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blount J. Paralinguistic Communication in Child Discourse. – Oxford University Press, 2008.
2. Harold Pinter. Silence.
3. Hoshimov O'. Urushning so'nggi qurboni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
4. Karimova D. Til va madaniyat aloqadorligi masalalari. – Toshkent, 2021.
5. Mirzayeva M. & Xolmatova S. "Paralingvistik vositalarning nutqdagi ro'li." Buxoro Davlat Universiteti, 2020, 557-bet.
6. Snow C. Emotional Intonation in Early Speech Development. – Cambridge, 2004.
7. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: Cho'lpon, 2015.
8. Xolbekova M. Paralingvistik belgilar tizimi va ularning bola nutqidagi roli. – Toshkent: Fan, 2020.